

**O'YIN BOLALAR HAYOTI VA FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH
SHAKLI SIFATIDA**

Tursunova Muslimabonu Xusniddin qizi

Qo'qon universiteti MT 1-22 guruh talabasi

E-mail muslimatursunova1111@gmail.com

Eraliyeva Zamira Rasuljonovna

Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

zamirahoneraliyeva22@gmail.com

Annotatsiya: *O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti - harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi.*

Kalit so'zlar: *O'yin, bola, kompetensiya, rivojlanish, nutq, so'z, materiallar, maqsadi.*

Аннотация: *благодаря тому, что игра по своей сути состоит в активном подражании поступкам и поведению взрослых, она дает детям широкие возможности для закрепления духовных качеств и усвоения правил этикета. Дошкольник стремится проявить все качества, относящиеся к этой профессии, если выполняет в процессе игры роль целителя или учителя.*

Ключевые слова: *Игра, ребенок, компетентность, развитие, речь, слово, материалы, цель.*

Annotation: *due to the fact that the game in its essence consists in an active imitation of the deeds and behavior of large people, it provides ample opportunities for strengthening spiritual qualities in children and for them to learn the rules of etiquette. When a preschool child performs the role of healer or teacher in the process of play, he seeks to show all the qualities that belong to this profession.*

Keywords: *Game, child, competence, development, speech, word, materials, purpose.*

Kirish: Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qaroriga

muvofoiq: O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 1-ilovaga muvofoiq quyidagilarni nazarda tutgan holda:

- maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdir. Konsepsiya maktabgacha ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Asosiy qism. Muhaddis olim Imom al-Buxoriy ham ilm o‘rganishni yuqori darajaga qo‘yib, o‘z asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Kishi ilm bobida nafaqat o‘zidan yuqori yoki tengdoshlaridan, balki o‘zidan past bo‘lganlardan hadis olmaguncha, yetuk muhaddis bo‘la olmaydi”. Imom Buxoriy ushbu fikri bilan o‘quv-bilish faoliyatining ijobiy motivlari ustoz-muallim tomonidan shakllantirilishiga urg‘u beradi.

Abu Nasr Forobiy⁴⁴ esa ko‘plab asarlarida bilish masalasiga katta e‘tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni – hissiy va aqliy bilishni farqlaydi hamda bilishda inson aqlining roliga ahamiyat beradi. Forobiy insonlarni ilmi bo‘lishga chaqirib, bolaning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ibratli g‘oyalarni ilgari surgan. U bolaga ta’lim berish, uni ilmi qilish uchun pedagog tinmasdan mashaqqatli mehnat qilsagina o‘quvchi o‘qishga, ta’lim olishga, bilimli bo‘lishga intilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Pedagog bolaga bilim beraman desa, o‘quvchi oldida haqiqatgo‘y bo‘lishi kerak, o‘zi fahm-farosatli bo‘lib, or-nomusini qadrlashi lozim, shogirdlariga nisbatan adolatli bo‘lishi, ko‘zlagan maqsadiga erishishida qat’iylik ko‘rsata bilishi va o‘rnak bo‘lmog‘i joiz, deya ta’kidlaydi mutafakkir. Forobiy tushunishni, bilimning mohiyatini uqib, anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo‘yadi, o‘quvchiga umumiy qonun-qoidalarni o‘zlashtirishni tavsiya etadi, chunki qonun-qoidalarni anglash, uning e‘tirofiga ko‘ra, juda katta ahamiyatga ega. Allomaning mulohazasiga binoan, har qanday bola o‘z xatti- harakatidan xabardor bo‘lmog‘i, ya’ni o‘zini anglagani, zamonaviy psixologiya fani terminologiyasiga ko‘ra, o‘zini refleksiya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi va shu sa’y-harakatlari tufayli baxtga erisha oluvchi insonligini anglamog‘i lozimdir. Bolalarning o‘zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yinning g‘oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari, rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O‘yin bola uchun

⁴⁴ Abu Nasr Forobiy esa ko‘plab asarlarida bilish masalasiga katta e‘tibor beradi. U bilishda ikki bosqichni – hissiy va aqliy bilishni farqlaydi hamda bilishda inson aqlining roliga ahamiyat beradi.

haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar oyinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkun. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, o'zini ovozi hayoti bilan yashaydi".

O'yinni tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning ro'li ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib qoladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlar o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlar o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. Shuning uchun psixologik nuqtai nazardan oqilona, yani to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir.


1. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga yetishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqishlari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama

rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashishga o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi materiallar bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlar bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ulanib, o'yinlarning bolaning psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqealikni aks ettirishdir. O'yinning qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham shunday ahamiyatga ega. Jahon psixologiyasi fanida ma'lumotlarga ko'ra eng sodda psixik jarayondan eng murakab psixik jarayonlar hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi xarakterlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushurish ehtimoli yaqqol voqealikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish negizida o'z ifodasini topadi. Uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi - esda olib qolish va esga tushurish jarayonlariga aylanadi. Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. O'yin faqat bilish jarayonlarni takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy tasir ko'rsatadi. Bolalar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'plab o'yinlar va tajribalar o'tkazdik bolalar bilan birgalikda shug'ullansak qiziqarli bo'ladi. Bolalar beg'ubor bo'lishadi, birga shug'ullanganingiz sari shug'ullanganingiz kelaveradi. Masalan, men bolalar bilan erta tongda havoga mos kuy qo'shiqlar qo'yib ularni kutib olaman. Bolajonlar ko'proq bo'lsa, ularni ikki guruhga bo'lib olib ular bilan qiziqarli o'yinlar o'ynaymiz. Albatta, ularni toza havoga olib chiqib

o‘ynatsak qiziqarli bo‘ladi. Bolalarni hammasiga bir xil muomalada bo‘lishimiz kerak. Ularni ko‘ngillari nozik bo‘ladi va tez hafa bo‘lib qolishadi, tez arazlashadi. Tarbiyachi birinchi navbatta tarbiyalanayotgan bolalarga mehribon, oqk o‘ngil bo‘lishlari shartdir.

Men Namangan viloyati Mingbuloq tumani Damko‘l qishlog‘idagi 33 DMTT da guruh bolalarini umumiy guruhda emas, balki guruhchalarga bo‘lgan holda, o‘yinli ta‘lim faoliyatini o‘tkazdim. Kichik guruhlariga bo‘lingan holdagi amalga oshirilgan o‘yinli ta‘lim faoliyatlari bolalarning bilim olishlariga yaxshi samara berdi. MTT ning 5-7 yoshli bolalar bilan o‘tkazilgan tadqiqotda bolalarning ta‘lim tarbiya olishlari 3-4 foizgacha natija ko‘rsatdi. (Asos 1-jadvalda ko‘rsatilgan)



Bu jadvaldan bolalarning gurupasiga ajratilganligi ko‘rsatilgan yoshiga qarab shundan bilib olsak bo‘ladi.

Dolzarliligi: Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo‘lsa bola hayotida o‘yin ham shunday ahamiyatga ega. Jahon psixologiyasi fanida ma‘lumotlarga ko‘ra eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayonlar hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo‘lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat‘iy yurish - turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o‘yin maskur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi xarakterlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushurish ehtimoli yaqqol voqealikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatni vujudga keltiradi. Bolaning o‘yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongli maqsadi harakatlarni bajarish kezida o‘z ifodasini topadi va uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushurish jarayonlariga aylanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, “o‘yin bolalar hayoti va faoliyatini tashkillashtirish shakli sifatida” mavzusi dolzarb mavzulardan biri deb hisoblayman. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida o‘yin faoliyati alohida o‘rin tutadi. Chunki aynan shu davrda bolaning psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi o‘yin orqali

faol shakllanadi. O'yin bolaning hayot tarziga, fikrlashiga, his-tuyg'ularini ifoda etishiga va ijtimoiy muhitga moslashishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'yin nafaqat ko'ngilochar mashg'ulot, balki bola shaxsini shakllantirishning asosiy pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa: o'rnida aytganda, yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o'rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. Chunki bolaning xatti-harkati qanchalik bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Masalan u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi. Bu maqolada albatta bolalar bilan ko'proq shug'ullanib turish tavsiya etiladi yosh avlodni yahshi tarbiyalasak kelajakda zo'r kadrlar bo'lib chiqishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin turlarining mazmuni M Norquziyeva – Maktabgacha ta'lim jurnali, 2021
3. Kalendarova Z.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi kompetentsiyalarini shakllantirish. "Maktabgacha ta'lim: xalkaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar". – Toshkent, 2021. 27-may. B. – 104 -106 b
4. Календарова З.К. Методы и методические приемы обучения детей дошкольного возраста математике. Московской области «Государственный гуманитарно-технологический университет»: «Студенческая наука подмосковью» материалы международной научной конференции молодых ученых. – Орехово-Зуево: Редакционно-издательский отдел ГГТУ, 2018. – С. 221-224.
5. Erali, Z. R. (2025). Znachenie i primenenie 3d va virtualnyx texnologiy v razvitiu voobrajeniya, vnimaniya, pamyati, myshleniya va tvorchestva detey doshkolnika. Bilgi cheşmesi , 1 (7), 16-22.
6. Rasuljonovna, E. Z. (2025). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ekologik so'qmoq" tashkil etish orqali bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish. Bilgi cheşmesi, 1(7), 23-28.
7. Tsvetnoymir Jurnal. "Bolalar bog'chasida, boshlang'ich maktabda va oilada san'at va dizayn". - IHORAO: №1 / 2012.

8. <https://mv-wedding.ru/uz/sport/ruchnoi-i-hudozhestvennyi-trud-kak-vid-truda-detei-doshkolnogo> 7. Imomaliyeva, M. (2024). Nodira melodies of navoi. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 10, 121-123.

9. Otto, M., & Thornton, J. (2023). Maktabgacha inklyuziv ta’lim sharoitida bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 408 411.

10. Rasuljonovna, E.Z. (2025). Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishda triz (imen) usullaridan foydalanish. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi , 44 (1), 128-133.

11. Rasuljonovna, E. Z. (2025). Bolalarda badiiy tafakkurni rivojlantirishda triz (imen) usullari haqida ilmiy qarashlar. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 44(1), 121-127.

12. Rasuljonovna, E. Z. (1820). Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik Konseptining Ifodalanishi. Miasto Przyszłości, 40, 329–334.

